



**O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**



## **Ilmiy Maqola**

### **SO'Z ERKINLIGI VA UNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI**

**Akbaraliyeva Ruxshona Abrorjon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti xalqaro huquq fakulteti  
1-kurs 1-2a-24 guruh talabasi  
[samo20060630@gmail.com](mailto:samo20060630@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada so'z erkinligining konstitutsiyaviy asoslari, uning inson huquqlari tizimidagi o'rni, xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unligi va O'zbekiston Respublikasidagi amaliy holatlar yoritiladi. 1992-yilgi Konstitutsiya va 2023-yildagi o'zgartirishlar doirasida fuqarolarning so'z erkinligi qanday kafolatlanganiga e'tibor qaratiladi. Blogerlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatiga oid dolzarb masalalar, muammolar va yechim takliflari tahlil qilinadi. Maqola so'z erkinligi bo'yicha huquqiy ongni oshirish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** So'z erkinligi, Konstitutsiya, inson huquqlari, O'zbekiston, blogerlar, ommaviy axborot vositalari, xalqaro huquq.





**Annotation:** This article explores the constitutional foundations of freedom of speech, its role within the human rights system, compliance with international legal standards, and practical implementation in the Republic of Uzbekistan. Special attention is given to how freedom of expression is guaranteed in the 1992 Constitution and its 2023 amendments. The paper analyzes current issues related to the activities of bloggers, media, and social networks, while also offering potential solutions. The article concludes with scientific and practical recommendations aimed at enhancing legal awareness and improving legislation in the field.

**Keywords:** freedom of speech, Constitution, human rights, Uzbekistan, bloggers, mass media, international law.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются конституционные основы свободы слова, её место в системе прав человека, соответствие международным правовым стандартам, а также практические аспекты в Республике Узбекистан. Особое внимание уделяется гарантированности свободы слова в Конституции 1992 года и её изменениях в 2023 году. Анализируются актуальные вопросы, связанные с деятельностью блогеров, СМИ и социальных сетей, а также предлагаются практические решения. Статья завершается научно-практическими выводами, направленными на повышение правосознания и совершенствование законодательства.

**Ключевые слова:** Свобода слова, Конституция, права человека, Узбекистан, блогеры, средства массовой информации, международное право.

## Kirish

So‘z erkinligi har qanday demokratik jamiyatning asosi hisoblanadi. Bu huquq fuqaro erkinligini, jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligini, shuningdek, hokimiyatni tanqidiy yondashuv orqali nazorat qilish imkonini beradi. Insoniyat tarixida so‘z erkinligi uchun olib borilgan kurashlar shuni ko‘rsatadiki, bu huquq oddiy bir





ijtimoiy hodisa emas, balki siyosiy va huquqiy tamoyil sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi<sup>53</sup> — inson huquq va erkinliklarini kafolatlovchi asosiy hujjat sifatida — so‘z erkinligining huquqiy asoslarini mustahkamlab bergen. Ayniqsa, 2023-yilda qabul qilingan konstitutsiyaviy islohotlar bu boradagi yondashuvni yanada takomillashtirdi. Fuqarolarning erkin fikr bildirish huquqi, axborot olish va uni tarqatish erkinligi, blogerlar hamda ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi kabi masalalar zamonaviy jamiyat sharoitida nihoyatda dolzarb bo‘lib bormoqda.

Shu bilan birga, so‘z erkinligi doirasida yuzaga kelayotgan muammolar, cheklovlar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan noto‘g‘ri axborotlar va ularning huquqiy bahosi ham chuqur tahlilni talab etadi. Bu esa, bir tomonidan so‘z erkinligini himoya qilish, ikkinchi tomonidan esa jamiyat barqarorligini saqlash o‘rtasidagi nozik muvozanatni ta’minalash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada aynan shu masalalar: so‘z erkinligining konstitutsiyaviy asoslari, xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi, milliy qonunchilikdagi amaliy jihatlar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqola so‘ngida esa, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar beriladi.

### **So‘z erkinligining mohiyati va tarixiy shakllanishi**

So‘z erkinligi — bu har bir insonning o‘z fikrini erkin ifoda etish, e’tiqodini bildirish, qarashlarini omma bilan baham ko‘rish huquqidir. Bu erkinlik nafaqat shaxsiy fikrlar, balki jamoaviy g‘oyalar, tanqidiy qarashlar va ijtimoiy munosabatlar orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi kuchli mexanizm hisoblanadi. Uning mavjudligi yoki yo‘qligi bir davlatning qanchalik demokratik ekanligining asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi. So‘z erkinligi — bu faqat erkin gapirish emas, balki erkin o‘ylash, erkin izlanish va haqiqatni ifodalash erkinligidir. Bu erkinlikni

---

<sup>53</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - [file:///C:/Users/user/Downloads/uploads\\_constitution\\_oz.pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/uploads_constitution_oz.pdf)





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



cheklash esa nafaqat shaxs huquqlarini, balki jamiyatning o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini ham cheklashga olib keladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, so‘z erkinligi g‘oyasi qadim zamonlardan shakllana boshlagan. Masalan, qadimgi Afinada, demokratianing dastlabki shakllari paydo bo‘lgan davrda, fuqarolar yig‘inlarida ochiq fikr bildirish huquqi mavjud bo‘lgan<sup>54</sup>. “Parrhesia” — ya’ni ochiq va jasoratli gapirish qadriyat sifatida qadrlangan. Rim imperiyasida esa Senat yig‘inlarida erkin fikr bildirish an’anasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, bu huquq hamma qatlamlar uchun teng ta’minlanmagan edi. So‘z erkinligining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi esa, ayniqsa Yevropada Yangi davr boshlanganidan keyin shakllandi. 17–18-asrlarda Angliyada, Fransiyada va AQShda sodir bo‘lgan inqiloblar natijasida inson huquqlari va fuqarolik erkinliklari, jumladan so‘z erkinligi, konstitutsiyalar va deklaratsiyalar orqali mustahkamlandi. Masalan, 1689-yilgi “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill” (Bill of Rights)<sup>55</sup>, 1789-yildagi Fransiya Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi<sup>56</sup> hamda 1791-yilgi AQSh Konstitutsiyasining birinchi tuzatmasi<sup>57</sup> — bularning barchasi so‘z erkinligini huquqiy asosda kafolatlashga qaratilgan muhim hujjatlar bo‘ldi. Xalqaro miqyosda esa so‘z erkinligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida e’tirof etilgan<sup>58</sup>. Unda har bir insonning fikr erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqi borligi ta’kidlangan. Keyinchalik bu huquq boshqa ko‘plab xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, mintaqaviy hujjatlar (masalan, Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi)<sup>59</sup> orqali mustahkamlangan.

<sup>54</sup> Tarix.sinaps.uz - <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/afinada-demokratianing-shakllanishi/>

<sup>55</sup> Bill of Rights - <https://bri-docs.s3.amazonaws.com/BillofRightsFinal.pdf>

<sup>56</sup> The Declaration of the Rights of Man and of the Citizen - <https://www.elysee.fr/en/french-presidency/the-declaration-of-the-rights-of-man-and-of-the-citizen>

<sup>57</sup> The First Amendment to the US Constitution of 1791 - [https://www.law.cornell.edu/constitution/first\\_amendment](https://www.law.cornell.edu/constitution/first_amendment)

<sup>58</sup> Universal Declaration of Human Rights -

[https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR\\_Translations/eng.pdf](https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/eng.pdf)

<sup>59</sup> European Convention on Human Rights - [https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_ENG](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG)





Shu bilan birga, har bir davlat o‘z siyosiy va ijtimoiy tizimiga mos ravishda so‘z erkinligini turlicha tartibga solgan. Bunda qonunchilikdagi tafovutlar, tarixiy tajriba, madaniyat va jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar muhim rol o‘ynagan. Masalan, G‘arbiy davlatlarda bu huquq ko‘proq himoya qilinsa, ayrim avtoritar tuzumlarda so‘z erkinligi cheklovlar ostida qolgan.

Bugungi kunda esa, so‘z erkinligi nafaqat an’naviy ommaviy axborot vositalari doirasida, balki ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, internet resurslari orqali keng miqyosda ifodalanmoqda. Bu esa, bir tomondan, erkinlik doirasini kengaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yolg‘on ma’lumotlar, nafrat so‘zlari va ekstremistik fikrlarning tarqalish xavfini ham oshirgan. Shuning uchun so‘z erkinligi haqida gap ketganda, uning ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un holda qaralishi alohida ahamiyat kasb etadi. Qisqa qilib aytganda, so‘z erkinligi insoniyat tarixida ko‘p bosqichli va murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bugungi zamonaviy demokratik davlatlar uchun bu huquq shunchaki huquq emas — balki inson sha’ni, erki va ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

### **O‘zbekiston Konstitutsiyasida so‘z erkinligining huquqiy kafolatlari**

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda demokratik jamiyat tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlash bиринчи галдаги vazifalardan bo‘ldi. 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi<sup>60</sup> ana shu tarixiy vazifaning huquqiy ifodasi bo‘ldi. Aynan shu hujjat orqaligina inson huquq va erkinliklari, jumladan so‘z erkinligi ilk bor mustaqil davlatimiz qonunchiligidagi aniq belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyaning 33-moddasida<sup>61</sup> har bir fuqaro axborot izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekani ko‘rsatib o‘tilgan. Bu, o‘z navbatida, erkin fikrlash va uni erkin ifoda etish huquqining konstitutsiyaviy kafolatini anglatadi. Bundan tashqari, 82-moddada<sup>62</sup> senzura

<sup>60</sup> Lex.uz - <https://lex.uz/docs/-20596>

<sup>61</sup> Lex.uz Konstitutsiya - <https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1#:~:text=qaytish%20huquqiga%20ega.-,33%2Dmodda,-Har%20kim%20fikrlash>

<sup>62</sup> Lex.uz Konstitutsiya - <https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1#:~:text=ishonchliligi%20uchun%20javobgardir.-,82%2Dmodda,-Senzuraga%20yo%E2%80%98l%20qo%E2%80%98yilmaydi>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



taqiqlanishi ham aniq yozilgan bo‘lib, bu modda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy kafolat sifatida e’tirof etilgan.

Ammo, Konstitutsiya qabul qilingan davrda texnologiyalar hozirgidek rivojlanmagan edi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli axborot vositalari odamlar hayotiga hali kirib kelmagan edi. Shuning uchun o’sha davrdagi qonunchilik ko‘proq an’anaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio va televidenie bilan bog‘liq edi. Yillar o‘tib, axborot makoni butunlay o‘zgardi, va bu o‘zgarishlar so‘z erkinligi tushunchasiga ham yangi ma’no olib keldi. Aynan shuning uchun ham 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida so‘z erkinligiga oid yondashuvlar ham yangilandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada (2023) 33-moddada har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligiga egaligi qayd etildi. Yangi moddaning farqi shundaki, bu safar "har kim" iborasi bilan inson huquqlari subyektlari doirasi kengaytirildi — ya’ni, faqat fuqarolar emas, balki har bir shaxs bu huquqqa ega deb e’tirof etildi. Bu esa xalqaro standartlarga muvofiq keladi.

Shuningdek, so‘z erkinligi doirasida har qanday shaxsni o‘z fikrini bildirgani uchun ta’qib qilishga yo‘l qo‘ylmasligi, davlat esa bu huquqni himoya qilishi kerakligi alohida belgilandi. Endi bu huquq faqat qog‘ozda emas, balki amalda ham ishlashi uchun davlatning bevosita majburiyati sifatida huquqiy mexanizmlar yaratilmoqda. Bu esa inson huquqlari masalasida muhim qadam hisoblanadi. Albatta, so‘z erkinligi mutlaq erkinlik degani emas. Yangi tahrirda ham bu huquqning chegaralari ko‘rsatilgan: boshqalarning sha’ni, qadr-qimmati, huquqlari va jamiyat xavfsizligi — bu cheklolvar doirasida qoladi. Bu yondashuv xalqaro huquqda tan olingan "erkinlik va javobgarlik muvozanati" tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, 2023-yilgi o‘zgarishlar<sup>63</sup> bilan birga, raqamli xavfsizlik, yolg‘on axborot, feyk yangiliklar va nafrat tili kabi zamonaviy muammolar ham huquqiy tartibga solish doirasiga kiritila boshladi. Blogerlar faoliyati, jurnalistlarning huquqlari, ommaviy

<sup>63</sup> Kun.uz - <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish#:~:text=Yangi%20konstitutsiya.%2010%20ta%20asosiy%20o%E2%80%98zgarish>





axborot vositalarining erkinligi — bular barchasi yangi qonunlar va institutlar orqali mustahkamlanmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston Konstitutsiyasida so‘z erkinligining evolyutsiyasi, ya’ni 1992-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan yo‘l — bu nafaqat huquqiy rivojlanish, balki jamiyat tafakkurining o‘zgarish yo‘li hamdir. Har bir bosqichda inson huquqlari borasidagi xalqaro standartlarga yaqinlashuv, xalqning ijtimoiy faolligi va davlatning ochiqlikka intilishi sezilib turadi.

### **Xalqaro huquqda so‘z erkinligi va O‘zbekistonning majburiyatları**

So‘z erkinligi — bu nafaqat har bir fuqaroning asosiy huquqi, balki butun jamiyatning demokratik rivojlanishi uchun muhim omil. Xalqaro huquqda so‘z erkinligi masalasi alohida o‘rin tutadi, chunki u nafaqat milliy qonunchilikda, balki butun dunyoda belgilangan inson huquqlari doirasida kafolatlanadi. O‘zbekistonning xalqaro huquqdagi majburiyatları esa shu erkinlikni himoya qilish va uning amalga oshirilishini ta’minalashga qaratilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” va boshqa xalqaro hujjatlar so‘z erkinligini ta’minalashda eng asosiy huquqiy vositalar hisoblanadi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan ushbu deklaratsiyaning 19-moddasi shunday deydi: “Har bir insonning fikr erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqi bor. Bu huquqga o‘z fikrini hech qanday aralashuvsiz erkin bildirishi, shuningdek, axborot olish va tarqatish huquqi ham kiradi.”<sup>64</sup> Bu modda har bir davlatning o‘z fuqarolarining so‘z erkinligini ta’minalashi majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda BMTning “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro pakti”ga qo‘sildi va uning “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakti”ga imzo chekdi. Bu paktning 19-moddasida<sup>65</sup> ham so‘z erkinligi alohida ta’kidlangan bo‘lib, davlatlar o‘z hududida bu huquqni cheklovlsiz

<sup>64</sup> Universal Declaration of Human Rights - <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights#:~:text=worship%20and%20observance.-,Article%2019,-Everyone%20has%20the>

<sup>65</sup> International Covenant on Civil and Political Rights - <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights#:~:text=their%20own%20convictions.-,Article%2019,-1.%20Everyone%20shall>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ta’minlashlari kerakligi ko‘rsatilgan. Bu hujjat O‘zbekiston uchun ham majburiyat bo‘lib, davlat shu asosda so‘z erkinligini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. O‘zbekistonning xalqaro huquqda so‘z erkinligi bo‘yicha majburiyatlar shundan iboratki, u nafaqat o‘z fuqarolariga fikr va so‘z erkinligini taqdim etish, balki axborotning erkin oqimiga to‘sinqilik qilmaslik va jurnalistlarning mustaqilligini himoya qilishni o‘z zimmalariga olishlari lozim. O‘zbekistonning 1992-yildan beri ratifikatsiya qilgan “Yevropa Konvensiyasi”ning 10-moddasi<sup>66</sup>ga ko‘ra, so‘z erkinligi nafaqat ijtimoiy jihatdan muhim, balki shaxsiy erkinlikning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilgi “Milliy Harakatlar Rejasি”<sup>67</sup>da ham so‘z erkinligi masalasi alohida e’tiborga olingan. O‘zbekiston, xalqaro huquqdagi majburiyatlarini bajarish maqsadida, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlashga qaratilgan qonunlarni ishlab chiqish va joriy etishda davom etmoqda. Bu islohotlar, ayniqsa, internetni erkin foydalanish, blogerlarning huquqlarini himoya qilish va raqamli axborot vositalarining tarqalishini erkinlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, xalqaro huquqning so‘z erkinligiga doir me’yorlari milliy qonunlarga kiritilgan va amaliyotda qo’llanilayotgan bo‘lsa-da, ayrim cheklovlar va xavf-xatarlar mavjud. Masalan, so‘z erkinligi jinoyatlarni targ‘ib qilish, millatlararo nafratni keltirib chiqarish yoki terrorizmni qo’llab-quvvatlashga olib kelmasligi kerak. Xalqaro huquqda ham bu cheklovlar tan olingan va ular jamiyat xavfsizligini saqlash, fuqarolarni himoya qilish uchun zarur deb hisoblanadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, so‘z erkinligi har bir demokratik jamiyatning ajralmas asosi hisoblanadi. Bu huquq fuqarolarga o‘z fikrini erkin ifoda etish, jamiyatdagi muammolarni ochiq muhokama qilish, hukumat faoliyatini baholash hamda sog‘lom fuqarolik jamiyatini shakllantirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qator xalqaro huquqiy hujjatlar ushbu erkinlikni

<sup>66</sup>European convention on human rights article 10 - <https://www.equalityhumanrights.com/human-rights/human-rights-act/article-10-freedom-expression#:~:text=Wales-Article%20protects%20your%20right%20to%20hold%20your%20own%20opinions,-Article%20protects>

<sup>67</sup> Lex.uz - <https://lex.uz/mact/-1392360>





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



e’tirof etadi va uni huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Biroq nazariy jihatdan e’tirof etilgan huquq amaliyotda to‘liq amalga oshishini ta’minlash doimiy e’tibor, izchil islohotlar va huquqiy madaniyatning yuksalishini talab qiladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari keskin rivojlanayotgan hozirgi davrda so‘z erkinligini himoya qilish bilan birga, bu huquqdan noqonuniy yoki zararli tarzda foydalanishga qarshi ham samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak.

Maqlolada ko‘rib chiqilganidek, O‘zbekiston xalqaro huquq normalari asosida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bosqichma-bosqich bajarishga kirishdi. Bu jarayonda milliy qonunchilikni takomillashtirish, OAV erkinligini kengaytirish, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va ijtimoiy muhokama madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning barqarorligi, ochiqligi va adolatga asoslangani fuqarolarning so‘z erkinligidan oqilona foydalanishiga ham bevosita bog‘liq. Kelgusida bu huquqning real hayotda to‘liq ishlashini ta’minlash, nafaqat huquqshunoslarning, balki barcha fuqarolarning faol ishtirokini talab etadi. Zero, so‘z erkinligi — bu nafaqat erkin fikrlash, balki erkin yashashning ham poydevoridir.

